



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q., Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - sentabr

VI-65-176-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarorining tumandagi ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori ijrosi yuzasidan Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri B.Shomurodovning xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergen hisobotini ko‘rib chiqib, bildirilgan takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qaroriga asosan “Mehr daftari”ga kiritilgan bolalar bilan ishslash yuzasidan tumanda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri B.Shomurodovning xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergen hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Kuchkarov) alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar sof tushumining uch foizi miqdoridagi ajratmalarni, homiylik mablag‘larini, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga ajratilayotgan mablag‘larning to‘g‘ri hisoblanishi hamda belgilangan tartibda sarflanishini ta’minlasin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Kuchkarov) har oyning 15-sanasida “Mehr daftari” jamg‘armasi hisobiga tushgan mablag‘lar to‘g‘risida tuman hokimligiga axborot kiritib borsin.

4. Oila va xotin-qizlar bo‘limi (Sh.Rajabova) maxsus o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan, vasiylikka, homiylikka va oilaga tarbiyaga olingan (patronat) qizlarning ta’lim-tarbiyasi, ularni balog‘atga, turmushga tayyorlash ishlariga mas’ul etib belgilansin hamda voyaga yetmagan qizlar o‘rtasida erta tug‘ruqning oldini olish, tazyiq va zo‘ravonlikka uchrayotgan qizlar bilan alohida tizimli ishlar olib borish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (S.Choriyev), tuman prokuraturasi (S.Ramazonov), tuman hokimligining Bolalarni himoya qilish sho‘basi (B.Shomurodov) bilan hamkorlikda har hafta maktablarda tadbirlar tashkil etib, amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha har oy yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumot taqdim etib borsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tahliliy hamda tanqidiy ruhda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bilan tegishli mansabdar shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov